

turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 15.05.2025-yildagi PF-87-son. // <https://lex.uz/docs/-7531559>

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

6. UNWTO. Guidelines for the Development of Gastronomic Tourism. – Madrid: World Tourism Organization, 2019.

7. McKinsey Global Institute. The future of tourism: Bridging the labor gap, enhancing customer experience. McKinsey & Company (2024). // <https://www.mckinsey.com/industries/travel-logistics-and-infrastructure/our-insights>

Malika TOSHPULATOVA,
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti tayanch doktranti,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasida stajyor o‘qituvchisi

O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHUVI SHAROITIDA MILLIY TURIZM BOZORIDA TARKIBIY O‘ZGARISHLAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu tezisda O‘zbekiston iqtisodiyotining jahon savdo tizimiga, xususan, Jahon savdo tashkiloti (JST) va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOT) kabi ko‘p tomonlama va mintaqaviy integratsiya tuzilmalariga qo‘shilishi sharoitida milliy turizm bozorida yuz berayotgan tarkibiy transformatsiyalar tahlil qilinadi. Muallif tomonidan integratsiya jarayonlarining xizmatlar eksporti tarkibiga makroiqtisodiy ta’siri, sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va raqobat muhitini liberallashtirish masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, Jahon savdo tashkiloti, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, xalqaro integratsiya, makroiqtisodiy ta’sir.

Аннотация. В данной работе анализируются структурные преобразования, происходящие на национальном туристическом рынке в контексте интеграции экономики Узбекистана в мировую торговую систему, в частности, в многосторонние и региональные интеграционные структуры, такие как Всемирная торговая организация (ВТО) и Евразийский экономический союз (ЕАЭС). Автор научно обосновывает макроэкономическое влияние интеграционных процессов на структуру экспорта услуг, привлечение иностранных инвестиций в сектор и либерализацию конкурентной среды.

Ключевые слова: туризм, Всемирная торговая организация, Евразийский экономический союз, международная интеграция, макроэкономическое влияние.

Abstract. This thesis analyzes the structural transformations taking place in the national tourism market in the context of the integration of the Uzbek economy into the world trade system, in particular, into multilateral and regional integration structures such as the World Trade Organization (WTO) and the Eurasian Economic Union (EEU). The author scientifically substantiates the macroeconomic impact of integration processes on the structure of service exports, the attraction of foreign investment in the sector, and the liberalization of the competitive environment.

Keywords: tourism, World Trade Organization, Eurasian Economic Union, international integration, macroeconomic impact.

Zamonaviy dunyo iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida xalqaro savdo integratsiyasi mamlakatlarning barqaror makroiqtisodiy o‘rishini ta‘minlovchi asosiy drayverlardan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro savdo tizimiga chuqur integratsiyalashuvi, xususan, Jahon savdo tashkilotiga (JST) a‘zo bo‘lish va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOII) bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni jadallashtirish strategiyasi nafaqat tovarlar savdosini, balki xizmatlar sohasining eng muhim segmenti bo‘lgan turizm bozorini ham tubdan transformatsiya qilishni taqozo etmoqda.

Turizm xalqaro xizmatlar savdosining yuqori multiplikativ samaraga ega bo‘lgan tarmog‘i hisoblanib, uning rivojlanishi bevosita mamlakatning tashqi iqtisodiy ochiqlik darajasiga bog‘liqdir. JSTning Xizmatlar savdosi bo‘yicha bosh kelishuvi (GATS) talablariga muvofiq, milliy turizm bozoridagi proteksionistik to‘siqlarning kamaytirilishi va xorijiy xizmat ko‘rsatuvchilar uchun bozorga kirish imkoniyatlarining kengayishi tarmoqning tarkibiy tuzilishini xalqaro standartlar asosida qayta shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mintaqaviy savdo bitimlari doirasida transport-logistika koridorlarining optimallasuvi va institutsional uyg‘unlashuv jarayonlari O‘zbekistonning transchegaraviy turistik salohiyatini realizatsiya qilishda yangi makroiqtisodiy imkoniyatlarni yaratmoqda.

Biroq, integratsiya jarayonlari milliy turizm bozori uchun nafaqat yangi imkoniyatlar, balki xalqaro raqobatning keskinlashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘lum bir xatarlarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Bu esa milliy turizm bozorining tarkibiy tuzilishini tahlil qilish, undagi o‘ziga xos tendensiyalarni aniqlash hamda ko‘p tomonlama savdo bitimlarining makroiqtisodiy oqibatlarini miqdoriy va sifat jihatidan baholash zaruriyatini yanada dolzarblashtiradi. Ushbu tadqiqot doirasida integratsion tuzilmalarga a‘zolikning milliy turizm infratuzilmasi, xizmatlar diversifikatsiyasi va tarmoqning yalpi ichki mahsulotdagi ulushiga ta‘siri ilmiy jihatdan ko‘rib chiqiladi.

Jahon iqtisodiyotining hozirgi transformatsiya bosqichida O‘zbekistonning ko‘p tomonlama (JST) va mintaqaviy (YEOII) savdo bitimlariga kirishishi xizmatlar eksportining strategik yo‘nalishi bo‘lgan turizm sohasining tarkibiy tuzilishini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Makroiqtisodiy nuqtayi nazardan, turizm xizmatlari savdosining liberallasuvi nafaqat yalpi ichki mahsulot (YAIM) o‘rishiga, balki to‘lov balansi tarkibining yaxshilanishiga ham bevosita xizmat qiladi.


JSTning Xizmatlar savdosi bo‘yicha bosh kelishuvi (GATS) doirasidagi majburiyatlarning qabul qilinishi milliy turizm bozorida institutsional o‘zgarishlarni boshlab beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar ko‘rsatishning “to‘rtta rejimi” bo‘yicha to‘siqlarning kamaytirilishi O‘zbekiston turizm bozoriga xorijiy transmilliy kompaniyalarning kirib kelishini jadallashtiradi. Bu jarayon, o‘z navbatida, bozorda raqobat muhitini sog‘lomlashtirib, turistik mahsulotlarning sifat va narx mutanosibligini xalqaro darajaga olib chiqadi.

Mintaqaviy integratsiya, xususan YeOII doirasidagi hamkorlik, O‘zbekiston uchun “intra-regional” (mintaqa ichidagi) turizm oqimini maksimallashtirish imkonini beradi. Turizm sohasida bu tendensiya transport-logistika infratuzilmasining optimallasuvi va chegara tartibotlarining soddalashishi hisobiga

“sayyohlar oqimi multiplikatori”ning o‘shida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston turizm bozorining tarkibiy tuzilishini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda xizmatlar eksportida an’anaviy rekreatsion turizm ustunlik qilmoqda. Biroq, integratsiya jarayonlari xizmatlar diversifikatsiyasini rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. JST standartlarining joriy etilishi natijasida biznes-turizm (MICE), ekoturizm va agroturizm kabi yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi segmentlarning ulushi ortishi kutilmoqda. Ayniqsa, xizmatlar savdosidagi “tijorat mavjudligi” rejimi orqali xorijiy brend mehmonxonalarining ko‘payishi milliy turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilishga turtki beradi.

Shu bilan birga, integratsiyaning makroiqtisodiy oqibatlarini regression tahlil qilinganda, turizm xizmatlari eksportining mamlakat to‘lov balansidagi o‘rni turg‘unlikdan dinamik o‘shishga o‘tishi prognoz qilinmoqda. Xususan, xalqaro savdo bitimlari natijasida xizmatlar savdosi balansi ijobiy saldoga ega bo‘lishi, bu esa milliy valyuta barqarorligini ta‘minlovchi qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan. Integratsion bloklar doirasidagi o‘zaro standartlarni uyg‘unlashtirish jarayoni esa O‘zbekiston turistik mahsulotining mintaqaviy bozordagi raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi.



1-rasm. Integratsiya jarayonlarining turizm sohasiga ta‘sir kanallari²⁰⁰

1. *Tranzaksiya xarajatlarining optimallasuvi va institutsional liberallasuv:* Savdo to‘siqlarining kamayishi, xususan, O‘zbekistonning YEOII kabi mintaqaviy bloklar bilan hamkorligi doirasida bojxona va chegara tartibotlarining soddalashishi, turizm iqtisodiyotida “harakatlanish xarajatlari” tushunchasini tubdan o‘zgartiradi. Makroiqtisodiy nuqtayi nazardan, chegaradagi ma‘muriy to‘siqlarning kamayishi xalqaro sayyohlar uchun “yashirin xarajatlar”ni minimallashtiradi va turistik mahsulotning yakuniy narx jozibadorligini oshiradi. Bu jarayon, ayniqsa, transchegaraviy transport koridorlarining samaradorligini oshirish orqali mintaqaviy turizm klasterlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Integratsiya natijasida yuzaga keladigan institutsional yengilliklar xizmatlar ko‘rsatish zanjiridagi samaradorlikni oshirib, multiplikativ samara orqali turdosh tarmoqlar rivojiga turtki beradi.


2. *To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va huquqiy kafolatlar determinant:* Jahon savdo tashkilotiga (JST) a‘zolik jarayoni xalqaro hamjamiyat uchun mamlakatning investitsion jozibadorligini belgilovchi “ishonch signali” hisoblanadi. Turizm iqtisodiyotida ushbu kanal xalqaro mehmonxona brendlari, yirik turoperatorlar va servis kompaniyalari uchun xalqaro huquqiy normalar (masalan, TRIMS va GATS bitimlari) asosida kafolatlangan muhit yaratadi. Huquqiy bazaning xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilishi milliy turizm infratuzilmasiga yo‘naltiriladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXI) oqimini jadallashtiradi. Investitsiyalar oqimi nafaqat kapital kirib kelishini, balki zamonaviy

²⁰⁰ <https://www.wto.org/> ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

boshqaruv texnologiyalari (nou-hau), yuqori servis standartlari va global bron qilish tizimlariga integratsiyalashuvni ham ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, milliy turizm mahsulotining jahon bozoridagi pozitsiyasini mustahkamlaydi.

3. *Raqobat muhitining transformatsiyasi va bozor muvozanati*: Xalqaro xizmat ko'rsatuvchilarning milliy bozorga kirib kelishi turizm sektorida raqobatbardoshlikning yangi bosqichini boshlab beradi. Makroiqtisodiy barqarorlik sharoitida raqobatning kuchayishi ikki tomonlama ijobiy natija beradi: birinchidan, xizmatlar diversifikatsiyasi oshib, turizm bozorida yangi segmentlar (MICE, ekoturizm, tibbiy turizm) shakllanadi; ikkinchidan, narxlar muvozanatlashuvi yuz beradi. Bozorning ochiqligi mahalliy operatorlarni xalqaro standartlarga moslashishga va operatsion samaradorlikni oshirishga majbur qiladi. Bu jarayon iste'molchi uchun tanlov imkoniyatining kengayishi va xizmat sifatining oshishi bilan birga, tarmoqning umumiy rentabellik darajasini xalqaro mezonlarga yaqinlashtiradi.

O'zbekistonning ko'p tomonlama (JST) va mintaqaviy (YEOII) integratsiya tuzilmalariga a'ziligining makroiqtisodiy oqibatlarini baholashda qo'llaniladigan zamonaviy ekonometrik usullar, xususan, GTAP va CGE modellari turizm sektori iqtisodiyotning eng dinamik rivojlanuvchi drayverlaridan biri bo'lishini ko'rsatmoqda.



2-rasm. GTAP va CGE modellarining turizm sohasiga ta'sirini miqdoriy ko'rsatkichlar orqali ifodalanishi²⁰¹

1. *Xizmatlar eksporti hajmining dinamik o'sishi*: Integratsiya jarayonlari natijasida xizmatlar savdosidagi liberalizatsiya darajasi pasayishi kutilmoqda. Ekonometrik simulyatsiyalar shuni ko'rsatadiki, savdo to'siqlarining ad-valorem ekvivalentida kamayishi O'zbekistonda xizmatlar eksportining, xususan, turizm xizmatlarining yillik o'rtacha 12-15 foizga barqaror o'sishini ta'minlaydi. Bu o'sish nafaqat an'anaviy turistik oqim, balki integratsiya natijasida kengayadigan biznes-turizm va xalqaro servis xizmatlari hisobiga shakllanadi. To'lov balansining joriy amallar hisobvarag'ida turizm xizmatlari eksportining ulushi ortishi, mamlakatning tashqi iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim makroiqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

2. *Turizm investitsiyalarining multiplikativ samarasi*: Turizm sohasi o'zining tarmoqlararo yuqori bog'liqlik darajasi bilan ajralib turadi. Ekonometrik tahlillar natijasiga ko'ra, integratsiya muhitida turizm infratuzilmasiga yo'naltirilgan har 1 AQSH dollari miqdoridagi investitsiya iqtisodiyotning turdosh tarmoqlarida (transport, logistika, umumiy ovqatlanish, chakana savdo va xizmat ko'rsatish)

²⁰¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

qo'shimcha 2.5 dan 3.2 dollargacha bo'lgan yalpi mahsulot yaratish imkoniyatiga ega. Ushbu multiplikativ samara integratsiya doirasida transport koridorlarining optimallasuvi va logistik xarajatlarning qisqarishi natijasida yanada yuqori koeffitsiyentga ega bo'ladi. Bu esa turizmni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham "tortuvchi" strategik yo'nalishga aylantiradi.

3. *Bandlik darajasining o'sishi va ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir:* Xizmatlar bozorining xalqaro savdo bitimlari doirasida kengayishi mehnat bozoriga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Modellashtirish natijalari integratsiya jarayonlari samarasi o'laroq, turizm va unga aloqador xizmat ko'rsatish sohalarida bandlik darajasining 8-10 foizga o'sishini prognoz qilmoqda. Turizmning mehnat sig'imi yuqori bo'lgan soha ekanligi inobatga olinsa, ushbu o'sish asosan yuqori malakali servis xizmatchilari va xizmat ko'rsatish sohasi mutaxassislariga bo'lgan talabning ortishi hisobiga yuz beradi. Bu esa o'z navbatida aholi daromadlarining o'sishiga va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy disproporsiyalarning kamayishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Ushbu kanallar majmuasi O'zbekistonning integratsiya strategiyasi doirasida turizm sohasini passiv rejimdan faol eksport yo'nalishiga aylantirishning asosiy mexanizmlari hisoblanadi. Savdo to'siqlarining kamayishi, investitsiyalar oqimi va sog'lom raqobat muhiti o'zaro uyg'unlikda amal amalga oshishi natijasida turizm sektori mamlakat to'lov balansini yaxshilovchi va bandlikni ta'minlovchi barqaror makroiqtisodiy drayverga aylanadi.

O'zbekistonning jahon savdo tizimiga integratsiyalashuvi milliy turizm bozorini passiv xizmat ko'rsatish modelidan aktiv eksport modeliga o'tkazish imkonini beradi. Bu jarayonda makroiqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida turizm infratuzilmasini raqamlashtirish, xalqaro sifat standartlarini majburiy joriy etish va mintaqaviy savdo bitimlari doirasida logistik jozibadorlikni oshirish masalalari turishi lozim. Ushbu tarkibiy o'zgarishlar uzoq muddatli istiqbolda turizmning mamlakat iqtisodiy o'sishidagi ulushini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abuseridze G., Agapova O., Petrova M. WTO and the future of global business tourism: Trends and challenges //Shifts in Knowledge Sharing and Creativity for Business Tourism. – 2024. – C. 264-280.

2. Canton H. World tourism organization–UNWTO //The Europa directory of international organizations 2021. – Routledge, 2021. – C. 393-397.

3. Joshi R.M., Malhotra S. Impact of WTO on growth and development of international tourism //Transnational Corporations Review. – 2014. – T. 6. – №. 3. – C. 290-303.

4. Ermukhamedovna E.A., Bolatovich E.A. The role of international organizations (UN, WTO, UNTourism) in the formation of the legal regime of tourism // Universal Science Perspectives International Scientific Practical Journal. – 2025. – T. 1. – №. 1.

5. Sobirjonovich A.Z. Turizm infratuzilmasi rivojlanishida turistik klasterlarning ahamiyati // Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions. – 2025. – T. 2. – №. 10. – C. 100-104.

6. Ruxsora U. O‘zbekiston turizm statistikasi // tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – C. 401-404.

7. Toshtemirovich M.Z. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish: imkoniyatlar va strategiyalar //Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 40-43.

Gulnoz ABDUMANNOBOVA,
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi tayanch doktoranti

O‘ZBEKISTONDA “YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISHDA TURIZMNING TA’SIR DOIRASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarida turizmni rivojlantirish va unga ta’sir qiluvchi omillar hamda yo‘nalishlar o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:** “Yashil” iqtisodiyot, turizm, atrof-muhit, ekologik ifloslanish, infratuzilma, barqaror rivojlanish.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается развитие туризма в период перехода страны к зеленой экономике, а также факторы и направления, оказывающие на него влияние.*

***Ключевые слова:** зеленая экономика, туризм, окружающая среда, загрязнение окружающей среды, инфраструктура, устойчивое развитие.*

***Abstract.** This article examines the development of tourism during the country's transition to a green economy, as well as the factors and directions influencing it.*

***Keywords:** green economy, tourism, environment, ecological pollution, infrastructure, sustainable development.*

Bugungi kunda Respublika iqtisodiyotida turizmni strategik darajada ko‘tarish, turizm xizmatlarini va turistik mahsulotlarni yanada rivojlantirish hamda turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish asosiy iqtisodiy maqsadlardan biri bo‘lib kelmoqda. Turizmni rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish asosiy maqsadlardan biridir. Shu maqsadda yurtboshimiz tomonidan mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish uchun bir qator qonun va farmoyishlar qabul qilingan. Turizmni rivojlantirish hamda mamlakatda turistlar oqimini ko‘paytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish asosiy vazifalardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekistonda tarmoq tashkilotlarning barqaror ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan rejalarni amalga oshirish va rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish²⁰² hamda mamlakatda yashil iqtisodiyotni

²⁰² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini boshqarish tizimini